



MAHALLIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA JAHON STANDARTLARINI JORIY ETISH ORQALI ULARNI EKSPORTGA YO‘NALTIRISH

G’afforov Sardor Abduqodirovich,
*Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi
magistr*

***Anotatsiya.** Maqolada mahalliy tadbirkorlik subyektlarida jahon standartlari, sifat nazorati tizimlarini joriy qilish orqali ularni eksportga yo‘naltirish, eksportyor korxonalarining eksport ko‘rsatkichlarini yanada oshirish yo‘nalish hamda uslubiyatlari tahliliga oid o‘rganishlar natijalari berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** eksport, sifat nazorati, xalqaro, hudud, tadbirkorlik, jahon, standart, iqtisodiyot, tadbirkorlik.*

Tashqi savdoni erkinlashtirish iqtisodiy ochiqliq darajasining o‘shishiga, ishlab chiqarish samaradorligining oshishiga va raqobatbardoshlikning kuchayishiga, mamlakat eksport salohiyatini oshirishning ichki imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi. Sanoat ishlab chiqarishda yangi turdagi mahsulotlarning paydo bo‘lishi mahalliy aholining hayotiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qanoatlantirish bilan birga qo‘shni davlatlar ichki bozorlariga raqobatbardosh, iste‘molchilar talablarini qondiradigan mahsulotlar ishlab chiqarish imkonini bermoqda. Shu o‘rinda O‘zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalarining negizida qudratli va zamonaviy ishlab chiqarishni yanada kengaytirishga, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlashda jahon andozasi talablariga javob beradigan texnologiyalarni jalb qilishga va xalq xo‘jaligining boshqa tarmoqlarini rivojlanishiga keng yo‘l ochib berilmoqda. Shu jumladan ushbu yo‘nalish doirasida mamlakatimizdagi mahsulot eksport qiladigan korxonalarini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, eksport salohiyatini oshirish ham ko‘zda tutilgan. Mamlakatimizdagi har bir hudud o‘ziga xos eksport salohiyatiga ega. Har bir viloyatning investitsion muhitidan, tabiiy va resurs potensialidan kelib chiqib, salohiyati shakllangan [1].

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiya qilish sharoitida mamlakatimizning eksport salohiyatidan yanada to‘liq va samarali foydalanish, jahon bozorlarini marketing jihatdan chuqur tadqiq qilish asosida tashqi bozorlarda xaridorgir bo‘lgan raqobatdosh yangi va qayta ishlangan mahsulotlarini eksportga etkazib berish hajmlari va turlarini ko‘paytirish, shuningdek, mahsulotlarni eksportga chiqarishning zamonaviy talablarga mos savdo-logistika infratuzilmasini jadal rivojlantirishda eksport qiluvchi korxonalarini soliqlar orqali rag‘batlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.



Bugungi kunda Respublikamizda eksportga mahsulot ishlab ko'paytirishni rag'batlantirish maqsadida eksport qiluvchi korxonalar uchun quyidagi soliq imtiyozlari va afzalliklari yaratilgan:

✚ O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 230-moddasiga ko'ra, aktsiz to'lanadigan tovarlarni ularning ishlab chiqaruvchilari tomonidan realizatsiya qilishga aktsiz solig'i solinmaydi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan aktsiz to'lanadigan tovarlarning ayrim turlari bundan mustasno [2].

✚ Tovarlarini chet el valyutasida eksportga realizatsiya qilish (qimmatbaho metallar bundan mustasno) oborotiga nol darajali stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi.

✚ Eksport qiluvchi korxonalar (xom ashyo tovarlarini sotish bundan mustasno) uchun foyda solig'i va mulk solig'i stavkasi umumiy sotish hajmida o'zi ishlab chiqargan va erkin almashtiriladigan valyutaga sotilgan tovar (ish, xizmat)lar eksportidagi ulushiga bog'liq holda kamaytiriladi:

- eksport ulushi 15 foizdan 30 foizgacha miqdorda bo'lganida – 30 foizga;
- eksport ulushi 30 va undan ko'proq foiz bo'lganida – 2 marotaba.

✚ Mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi stavkasi quyidagicha kamaytiriladi:

- umumiy sotish hajmida eksport ulushi 15 foizdan 30 foizgacha bo'lganida 30 foizga;
- eksport ulushi 30 va undan ko'proq bo'lganida – 2 marotaba.

Sifatni boshqarish tizimlarini joriy etish, mahsulotlarning xalqaro standartlarga muvofiqligini sertifikatdan o'tkazish, shuningdek, laboratoriya testlari va sinovlarini o'tkazish komplekslarini xarid qilishga yo'naltiriladigan mablag'larga yangi texnologik uskunalarni sotib olishda nazarda tutilgan yagona soliq to'lovi bo'yicha soliq solinadigan bazani kamaytirishning amaldagi tartibi mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun tadbiq etildi. Mamlakatimiz eksport salohiyatini kengaytirish, eksport qiluvchi tashkilotlarni tomonidan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, raqobatbardosh eksport mahsulotlari ishlab chiqarishning ko'paytirilishini rag'batlantirish maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29 noyabrdagi "Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF 5587-sonli Farmoni alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Farmonga ko'ra, 2019-yil 1 yanvardan boshlab tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni, shu jumladan komissioner (ishonchli vakil)



orqali realizatsiya qilishdan tushgan umumiy tushumida eksport ulushi 15 foizdan yuqori bo'lgan yuridik shaxslar soliq solinadigan bazani:

- tovarlar (ishlar, xizmatlar) ni eksportga realizatsiya qilish hajmiga to'g'ri keladigan foyda qismi yuzasidan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha;

- tovarlar (ishlar, xizmatlar) ni eksportga realizatsiya qilish hajmiga to'g'ri keladigan qismi yuzasidan yagona soliq to'lovi bo'yicha kamaytiradilar.

Ushbu berilgan imtiyozlar va preferentsiyalar natijasida, jahon bozorlaridagi kon'yunkturaning sezilarli o'zgarishlariga qaramay, mamlakatimizda oxirgi yillar ichida mahsulotlar eksportini o'sganligini, uning tuzilmasini diversifikatsiya qilish ta'minlanib, eksport umumiy hajmida tayyor mahsulotlarning ulushi ortayotganligini ko'rishimiz mumkindir. Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgartirishlarni amalga oshirish, kimyo sanoatini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash, boy mineral xom-ashyo resurslarining zahiralari yanada chuqur qayta ishlashni ta'minlash, eksportga yo'naltirilgan yuqori mahsulot olish. Tovarlarni va xizmatlarni eksporti hajmini tubdan oshirish, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish, tashqi savdo muvozanatini ta'minlash va valyuta tushumlarini ko'paytirish maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20 dekabrda "Eksportga ko'maklashish va uni rag'batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4069-sonli Qaroriga ko'ra, tadbirkorlik sub'ektlariga quyidagilarda har tomonlama ko'maklashish belgilab berildi:

- yuqori qo'shilgan qiymatga ega eksportbop raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish, xizmatlar (turistik, tibbiy, ta'lim, transport, qurilish va boshqalar) eksporti hajmini keskin oshirish hamda ularni ko'rsatish uchun tegishli infratuzilmani jadal barpo etish;

- o'zi ishlab chiqargan mahsulotlarni etkazib berishda hamkorlarni izlash hamda tashkilotlar va korxonalar bilan shartnomalar tuzish. Shuningdek, eksport faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash qismida eksport qiluvchi korxonalarni moliyaviy resurslar bilan ta'minlash, noxomashyo eksport hajmi, milliy eksport qiluvchilar va ularning mahsulotlarini sotib oladigan mamlakatlar sonini oshirishga ko'maklashish [3].

Milliy mahsulotlarni xorijiy vakolatli organlar tomonidan rasmiylashtirilishi orqali standartlashtirish va sertifikatlashtirishning ham respublikadagi, ham xorijdagi xalqaro tizimlarini joriy etish bilan bog'liq xarajatlarni qoplash maqsadida eksport qiluvchi korxonalarga maqsadli moliyaviy yordam ko'rsatish; moliyaviy qo'llab-quvvatlash va milliy eksportni sug'urtalashning zamonaviy mexanizmlarini



muvaffaqiyatli qo'llagan xorijiy mamlakatlar tajribasini inobatga olib, shu jumladan xalqaro moliyaviy institutlarni jalb qilgan holda eksportoldi va eksportni moliyalashtirish, eksport kreditlari va tavakkalchiligini sug'urtalash mexanizmlarini joriy etish va boshqa muhim vazifalar belgilandi. Mamlakatimiz iqtisodiyotini tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiya qilish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishda eksport qiluvchi korxonalar faoliyatini moliyaviy rag'batlantirish masalalarini yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi takliflarni keltirish mumkin:

- eksport qiluvchi korxonalar faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash vositalari rivojlantirish orqali eksportoldi va eksportni moliyalashtirish mexanizmlarini yaratish;

- turli xil xizmat turlari eksportini tashkil qilish, ularni amalga oshirish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishni jadallashtirish;

- tashqi bozorlarda raqobatbardosh bo'lgan yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi korxonalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish;

- yuqori texnologiyali uskunalarni, yangi turdagi texnika va texnologiyalarni ishlab chiqaruvchi hamda o'z mahsulotlarini eksport qiluvchi mahalliy xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga qo'shimcha imtiyoz va preferentsiyalarni ko'zda tutish;

- eksport operatsiyalari bilan shug'ullanuvchi modernizatsiya, texnik va texnologik qayta jihozlash jarayonlarini amalga oshiruvchi korxonalarga qo'shimcha imtiyoz va preferentsiyalarni taqdim etish mexanizmini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiqdir [4].

Korxonalarda xalqaro standartlarni qo'llash va saqlash omborlarini ko'paytirish yuzasidan olimlar tomonidan tizimli ravishda tadqiqotlar olib borishgan. Xususan, mamlakatimiz olimlaridan K.B.Urazov, M.E.Po'latov, S.N. Tashnazarov, H. Irgashev, I. Axmadxonov boshqa iqtisodchi olimlarimiz tomonidan xalqaro standartlarni qo'llash va ularni ahamiyati yuzasidan hamda moliyaviy hisobot shakllarida aks ettirishni takomillashtirish masalalari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan. Tadbirkorlar ularga berilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanishi natijasida o'z tadbirkorlik faoliyatlarini kengaytirib, eksport hajmini oshirishmoqda. Eksport hajmini oshishi o'z navbatida chet mamlakatlardagi investorlarni ham iqtisodiyotimizga qiziqishini o'sishiga hamda investitsiyalar hajmining ham miqdori oshishiga xizmat qilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son qaroriga muvofiq, aktsiyadorlik



jamiyatlari, tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari, davlat ulushi bo'lgan tegishli xo'jalik jamiyatlari va yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritilgan yuridik shaxslar 2021-yil yakunlaridan boshlab moliyaviy hisobotni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (keyingi o'rinlarda — MHXS) asosida tayyorlashi va 2021-yil yakuniga qadar buxgalteriya hisobi xizmatini xalqaro sertifikatlash doirasida tegishli sertifikatga ega bo'lgan kamida uch nafar mutaxassis bilan ta'minlashi, qarorida korxonalarini xalqaro standartlarga muvofiq xisobini olib borishni nazarda tutadi [5].

Xalqaro standartlarga o'tishining yangicha bosqichda olib borilishini o'zi ham mamlakatimizni yana bir pog'ona ko'tarilishi demakdir. Xalqaro standartlarga tezroq o'tish bu ko'p hollarda korxonalar rahbariyatiga bog'liq bo'ladi, shu sababdan birinchi navbattada korxonalar rahbariyatiga xalqaro standartlar to'g'risida biroz bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim. Xalqaro standartlar faqat investorlar uchun emas, korxonalar kelajakdagi rivoji uchun ham xizmat qiladi. Xalqaro standartlarga o'tish korxonalar rivoji va mahalliy tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga faqatgina ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xalqaro standartlarni korxonalarda qo'llashni tezlashtirish uchun xalqaro standartlarga o'tgan korxonalarda soliqdan imtiyozlarni qo'llash va hisobotni yuritishda soliq korxonalar buxgalterlariga yaqindan yordam berish muhim. Yuqorida keltirilgan fikr va mulohazalar asosida aytishimiz mumkinki rivojlanib borayotgan mamlakatimizda xalqaro standartlar o'tish hozirgi kundagi dolzarb masalalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Ushbu masalalarni xal qilishda jahondagi ilg'or korxonalar tajribasiga nazar solish va ular bilan tajriba almashtirish, bilim va ko'nikmalarini oshirish yuzasidan fikr almashishlari lozim bo'ladi [6].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sotvoldiev F.K. O'zbekiston Respublikasi hududlarining eksport salohiyati., 96-100 betlar, "Iqtisodiyotda innovatsiyalar" jurnali ,4 jild, 6-son, 2021 y doi.org/10.26739/2181-9491-2021-6
2. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi.-T.:2017 yil.
3. Abdullaev I.S. Mintaqaviy iqtisodiy tizimni optimal tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish. Iqtisod fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent: TDIU, 2017 yil.-56 bet.
4. Mamatov M. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning nazariy asoslari. Iqtisodiyot va ta'lim. 2011 yil, 4-son, 42-b.
5. <https://lex.uz/docs/-4746047>
6. Nurniyozov F.A. Xalqaro standartlarga o'tishning bosqichlari. Journal of marketing, business and management, 1-5 betlar, Volume 2, Issue 1 (April) ISSN: 2181-3000.
7. Yarashevich, P. N. J. (2023). Factors for Choosing a Marketing Strategy in Tourism Development.
8. Nurillayev, J. Y. (2022). The role of corporate management system in providing financial security in commercial banks.